

## Geografiya ta'limi metodlari

**Xalimova Zulfizar Akmal qizi**  
**Buxoro Davlat Pedagogika instituti**  
**2 - GIQ 21 guruh talabasi**

**Annotatsiya:** Geografiya ta'limi metodlari – bu geografiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan usul va strategiyalar to‘plamidir. Ushbu metodlar o‘quvchilarga geografik bilimlarni o‘zlashtirish, joylashuv, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni tushunish, shuningdek, global muammolarni hal etishda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Geografiya ta'limida ishlatiladigan asosiy metodlar orasida an'anaviy dars o'tish usullari (ma'ruzalar, suhbatlar), amaliy mashg'ulotlar (ekskursiyalar, laboratoriya ishlar), interaktiv usullar (o'yinlar, simulyatsiyalar) va zamonaviy texnologiyalar (multimedia taqdimotlari, onlayn resurslar) mavjud. Ushbu metodlarning har biri o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga javob berishga imkon beradi va geografik ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, geografiya ta'limi metodlari orqali o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, jamoada ishlashga va muammolarni hal qilishga tayyorlash maqsad qilinadi. Geografiyaning ijtimoiy ahamiyatini oshirish uchun ushbu metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llash zarurdir.

**Kalit so'zlar:** interaktiv o'qitish, vizualizatsiya, guruhli ish, simulyatsiya va rol o'yinlari, loyihalash, o'z-o'zini baholash,

**Аннотация:** Методика преподавания географии представляет собой совокупность методов и стратегий, используемых при обучении географии. Эти методы помогают студентам приобрести географические знания, понять местоположение, природные и социальные процессы, а также развить навыки критического мышления при решении глобальных проблем. К основным методам, используемым в обучении географии, относятся традиционные методы обучения (лекции, беседы), практические занятия (экскурсии, лабораторные работы), интерактивные методы (игры, симуляции) и современные технологии (мультимедийные презентации, онлайн-ресурсы). Каждый из этих методов позволяет отвечать различным потребностям учащихся и играет важную роль в формировании географических навыков. Он также направлен на подготовку студентов к независимым исследованиям,

командной работе и решению проблем с помощью методов географического образования. Чтобы повысить социальную значимость географии, необходимо правильно выбирать и применять эти методы.

**Ключевые слова:** интерактивное обучение, визуализация, групповая работа, симуляция и ролевая игра, проектирование, самооценка,

**Abstract:** Geography teaching methods are a set of methods and strategies used in teaching geography. These methods help students acquire geographic knowledge, understand location, natural and social processes, and develop critical thinking skills in solving global problems. The main methods used in geography education include traditional teaching methods (lectures, conversations), practical activities (excursions, laboratory work), interactive methods (games, simulations) and modern technologies (multimedia presentations, online resources) are available. Each of these methods allows to respond to the different needs of students and plays an important role in the formation of geographical skills. It is also aimed to prepare students for independent research, teamwork and problem solving through geography education methods. In order to increase the social importance of geography, it is necessary to choose and apply these methods correctly.

**Keywords:** interactive learning, visualization, group work, simulation and role-playing, design, self-assessment,

**Kirish:** O‘zbekiston Respublikasida demokratik va huquqiy jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro‘y berayotgan voqea - hodisalarga shaxsiy munosabtni bildirishga imkon beradi. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o‘zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko‘rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxs o‘z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta’limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir.

Geografiya ta’limi metodlari mavzusi zamonaviy ta’lim tizimida juda dolzarb hisoblanadi. Buning bir nechta sabablari bor:

1. Globalizatsiya va integratsiya: Hozirgi kunda dunyo global miqyosda o‘zaro bog‘lanmoqda. Geografiya ta’limi orqali talabalarni jahon va mahalliy muammolarni tushunish, ularni hal etish uchun kerakli bilimlar bilan ta’minlash zarur.

2. Innovatsiyalar va texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalar, masalan, GIS (Geographic Information Systems) va boshqa raqamli vositalar geografiyani o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ta'lim metodlarini yangilash orqali o'quvchilarni ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatish mumkin.

3. Ekologik masalalar: Iqlim o'zgarishi, resurslarning kamayishi kabi global ekologik muammolar har bir inson uchun muhim ahamiyatga ega. Geografiya ta'limi yordamida bu masalalar haqida xabardorlikni oshirish va ekologik ongni rivojlantirish mumkin.

4. Kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati: Geografiya o'qitish metodlari orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

5. O'qituvchilar uchun yangi yondashuvlar: Ta'lim metodlarining yangilanib borishi o'qituvchilarga yanada samarali dars o'tish imkonini beradi, bu esa talabalar bilimni yaxshilashga olib keladi.

Shuning uchun geografiya ta'limi metodlarini takomillashtirish va yangilash jarayoni dolzarbdir, chunki u nafaqat talabalarni bilim bilan ta'minlabgina qolmay, balki ularning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi faol ishtirokini ham oshiradi.

**Asosiy qism:** Geografiya ta'limi metodlari — bu o'qituvchilar va talabalarning geografik bilimlarni samarali o'rganishi va o'rganishini ta'minlash uchun ishlatiladigan usullar to'plamidir. Geografiya ta'limida qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1. An'anaviy o'qitish metodlari:

- Darslik asosidagi ta'lim: O'quvchilarga darsliklar orqali ma'lumot berish.
- Ma'ruza: O'qituvchi tomonidan ma'lum bir mavzuda bilim berish.

2. Interaktiv metodlar:

- Tadqiqot usuli: O'quvchilar mustaqil ravishda geografik muammolarni o'rganadilar.

- Guruhli ish: Talabalar guruhlariga bo'linib, muayyan vazifalarni bajaradilar.

3. Vizual metodlar:

- Xaritalar va diagrammalar: Geografik ma'lumotlarni ko'rish va tushunishni yaxshilash uchun xaritalar va diagrammalardan foydalanish.



- Multimedia vositalari: Video, slaydlar va boshqa vizual materiallar orqali ta'lim.

4. Praktik usullar:

- Ekspeditsiyalar va ekskursiyalar: Talabalarni amaliy tajribalar orqali geografiya bilan tanishtirish.

- Laboratoriya ishlarini o'tkazish: Geografik hodisalarni tajribalar orqali o'rganish.

5. O'yin-jarayonlari:

- Geografik bilimlarni rivojlantirish uchun turli xil o'yinlar, viktorinalar va simulyatsiyalar.

6. Muammoni hal qilish metodi:

- O'quvchilarga real hayotdagi geografik muammolarni hal qilish vazifalari beriladi, bu esa ularning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

Geografiya ta'limi metodlarini tanlashda talabalar qobiliyatlari, darsning mavzusi va maqsadlariga qarab moslashtirilishi lozim. Bu jarayon o'zaro aloqani kuchaytiradi va o'qitishga qiziqishni oshiradi.

**Muhokama:** O'quvchilarning ijodiy fikrlashini, bilim egallashtirishdagi faolligini, mustaqilligini rivojlantirish, ishlab chiqarish, fanga, san'atga qiziqishini rag'batlantirish o'z bilimini mustaqil to'ldirish shu jumladan oliy o'quv yurtlari, o'rta ta'lim va maktabdan tashqari axborot manbalari hisobiga to'ldirish, hozirgi zamon siyosiy hayoti, voqealarini to'g'ri tushunish ko'nikma va malakalarini hosil qilish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qilishning quyidagi shakllaridan foydalaniladi;

- kinofilm namoyish qilish va shu asosida mustaqil insho yozish;
- mavzu asosida mustaqil reja tuzish;
- mustaqil savollar tuzish;
- o'qituvchi tomonidan tuzib kelingan savollarni o'quvchilarga tarqatib uning javoblarini dasrlikdan topish;
- o'tkir zehnlilar mushoirasiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish;
- ma'lum bir mavzu, bob, qism o'tib bo'lgandan so'ng yozma ish olish;
- raqamli materiallar ustida ishlash, jadval, grafik, diagrammalar tayyorlash;
- badiiy adabiyot vaqtli matubotdan foydalanish;
- mavzu yuzasidan ko'rgazmali qurollar tayyorlash;

- rangli rasm, surat, slaydlar ustida mustaqil ishlash;
  - to‘g‘arak ishi va uning mashg‘ulotlarida yig‘ilgan materiallar, kuzatish natijalarini mustaqil o‘rganish;
  - tashkil etilgan geografik o‘yinlar paytida mustaqil fikrlash:
- o‘qitishning bunday shakllaridan yangi mavzuni bayon etish jarayonida yoki o‘tib bog‘lingan mavzular asosida tashkil etilgan darslarda foydalanish mumkin. Bunda esa o‘quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash va ruhiy holatiga e‘tibor berish

**a) Mavzu yuzasidan mustaqil savollar tuzishga o‘rgatish**

**б) O‘tkir zehnlilar mushoirasiga tayyorgarlik ko‘rish uchun ham mustaqil ishlashi ta‘minlanadi.**

**в) Olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonida ham mustaqil ishlar qilib boriladi.**

**г) Darslik ustida o‘quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish.**

kerak.

### **1.1.1.-rasm. O‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish.**

Darslikda uyga vazifa tarzida mustaqil ishlash uchun geografiya daftariga 4 - 5 ta savol yoziladi. So‘ngra tuzilgan savollarni har bir o‘quvchi alohida javobini aytib beradi yoki kartochkalar tarqatib, shu savollarga darslikdan javob topishga undash lozim. Bu ishni bir yoki bir necha mavzu o‘tib bo‘lingandan so‘ng ham amalga oshirish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilar soniga, qarab savolli kartochkalar hamda o‘quvchilar bilimi, qiziqishi, bilim olishdagi tezkorligini hisobga olgan holda kartochkalar tarqatiladi va javoblari ball bilan baholanadi. (1.1.1-rasm)

a) Mavzu yuzasidan mustaqil savollar tuzishga o‘rgatish.

Bu ish quyidagicha tashkil etiladi. Mavzu tafsilotini bayon qilib bergandan keyin o‘quvchilar tushunchasini tekshirish uchun har bir savol yuzasidan ularga

savollar beriladi. O‘quvchilar bergan javoblariga tuzatishlar kiritib, so‘ngra har bir mavzuni mustaqil yozib chiqish, ularga bir yoki bir necha savollar tuzish taklif etiladi. Mavzuning hajmiga qarab 10 - 15 minut ajratib, shu muddat ichida tuzilgan savollarga berilgan javoblarni eshitib ball bilan baholaymiz. Eng yaxshi tuzilgan savollarga ham ball quyiladi. Bunday dars materialini, hajmi kichik mavzularda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar bilimiga kulgichlar bilan ball qo‘yib borish ham mumkin. Bunda kulgich - 2, kulgich - 3, kulgich - 4, kulgich - 5 ball baholanadi.



2 ball



3 ball



4 ball



5 ball

### 1.1.2-rasm. Kulgichlar bilan baholash.

O‘qituvchining qo‘lida ana shu to‘rt turdagi kartochka o‘quvchilarni bir necha bor baholash uchun etarli bo‘ladi. Baholangan ayrim o‘quvchilar barchasida ana shunday kartochkalar bir necha bo‘ladi, sababi bir o‘quvchi bir necha marta so‘zga chiqadi. Har biri har safar ball olaveradi. Shuni ham aytish kerakki, sinfda qoloq o‘quvchilar ham bo‘ladi. Bu o‘quvchilar savol - javoblarda faol ishtirok etmaydilar, chunki ular darsga tayrgarliksiz keladi. Mavzuning dastlabki savollari e‘lon qilinganda ana shunday o‘quvchilarga qarata o‘qituvchi: “qani bu haqida sizning fikringiz” ? - deb ularni gapirishga undaydi. O‘quvchi javob bera olmasa birinchi kartochka oladi. Muhokama jarayonining ikkinchi yarimida haligi birinchi kartochka olgan o‘quvchilar ham savol - javoblarga aralasha boshlaydilar.

Bunday kartochkalar bilan baholash o‘quvchilarni fikrlashga majbur qiladi, o‘quvchi yuqori ballga erishish uchun tirishib o‘zidagi barcha imkoniyatlarni ishga solishga harakatiladi, ularning ortiqcha harakatlariga o‘rin qolmaydi. Ularda o‘qituvchi men bilmagan savolni berib qo‘yadi degan hayajonlanish, bo‘lmaydi, hamda reyting bali yuqori bo‘lgan o‘quvchilarga nisbatan nafrat hissi paydo bo‘lishiga o‘rin qolmaydi

#### **Xulosa va takliflar:**

Xulosa



1. Interaktiv metodlar: Geografiya darslarida interaktiv usullarni qo'llash talabalar faol ishtirokini ta'minlaydi. Muammoli vazifalar va guruhli ishlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda etish va muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

2. Texnologiyalarni qo'llash: Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, GIS (Geografik Axborot Tizimlari), multimedia materiallar va onlayn platformalarni qo'llash geografik ma'lumotlarni tushunishni yanada osonlashtiradi.

3. Amaliy mashg'ulotlar: Ommaviy joylarga ekskursiyalar va amaliy tadbirlar orqali talabalar real hayotdagi geografik jarayonlarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

4. Kross-kurs metodlari: Geografiya darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish (masalan, tarix, biologiya yoki iqtisodiyot) orqali o'quvchilarga kengroq kontekst berish mumkin.

#### Takliflar

1. Innovatsion yondoshuvlarni joriy etish: O'qituvchilar innovatsion pedagogik uslublarni qo'llash orqali darslarni qiziqarli va samarali o'tkazishga harakat qilishlari kerak.

2. O'qituvchilarni tayyorlash: O'qituvchilarning malakasini oshirish maqsadida seminarlar, treninglar tashkil etish zarur. Bu yangi metodologiyalar va texnologiyalar bilan tanishtirishga yordam beradi.

3. Materiallarni yangilash: O'quv dasturlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilab borish lozim. Ushbu dasturlarda ekologik muammolar, global isish kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

4. Talabalar fikrini inobatga olish: Talabalarning fikr-mulohazalari asosida dars jarayonini takomillashtirish uchun anketalar yoki so'rovnomalar o'tkazish foydali bo'ladi.

5. Onlayn resurslardan foydalanish: Onlayn platformalarda mavjud resurslardan foydalanishni rag'batlantirish zarur, chunki bu talabalarni mustaqil izlanishga undaydi.

Umuman olganda, geografiya ta'limi metodlarini rivojlantirish uchun innovativ yondoshuvlarni joriy etish hamda amaliy tajribalarni oshirish muhimdir. Bu nafaqat talabalarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning geografik tafakkurini ham kengaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Во‘rieva M.- O‘zbekistonda oila demografiyasi. T., “Universitet”, 1989.
2. Голиш Л.В., Файзуллаев Д. М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш -Т.: -Иқтисодиёт”-2011
3. Ишмухамедов Р, М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологияси. Т. : Нихол.- 2013.
4. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар).-Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008 -180 б.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovation ta’lim texnologiyalari /– Т.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
6. Мусаев П, Мусаев Ж Ўзбекистоннинг иқисодий ва ижтимоий географияси “Шарқ”. Тошкент.- 2014.
7. Мўминов О. Замонавий география дарсига қўйиладиган талаблар. (Ўқитувчилар учун методик қўлланма) - Т.: Ўқитувчи,- 1990. -29- 31
8. Podlasy I.P. Pedagogika: 100 savol-100 javob: darslik. Universitetlar uchun darslik: Vlados-press, 2004.
9. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. Урганч 2001.

Research Science and  
Innovation House

